

**BOSHLAN‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA
INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB DARS O‘TISHNING
INNOVATSION USULLARI**

**Xalqaro Nordik universiteti
Inatova Nozliya Abduqahhor qizi
Talim va tarbiya nazariyasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 2-bosqich
magistranti**

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati va innovatsion usullar bilan dars o‘tkazishning samaradorligi yoritilgan. Unda o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularni faollikka undash va mustaqil fikrلashga o‘rgatish metodlari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda savodxonlik darslarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, interfaol metodlar, innovatsion usullar, o‘quvchilarning faolligi

**ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ
ЧТЕНИЯ И ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ**

**Международный Северный университет
Инатова Нозлия Абдукаххор кизи
Магистрант 2 курса по направлению «Теория образования и
воспитания (начальное образование)»**

Аннотация: В данной научной работе рассматривается значение использования интерактивных методов на уроках грамотности в начальных классах, а также эффективность проведения занятий с применением инновационных подходов. Проанализированы методы повышения интереса учеников, стимулирования их активности и развития

самостоятельного мышления. Также даны рекомендации по организации уроков грамотности с использованием современных технологий.

Ключевые слова: начальное образование, грамотность, интерактивные методы, инновации, активность учащихся

INNOVATIVE TEACHING METHODS USING INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY SCHOOL READING LITERACY CLASSES

International Nordic University

Inatova Nozliya Abdukahhor qizi

2nd year master's student in the field of Theory of Education and Education (Primary Education)

Abstract: This research explores the importance of using interactive methods in early-grade literacy lessons and evaluates the effectiveness of teaching with innovative techniques. It analyzes strategies to increase student engagement, encourage active participation, and foster independent thinking. The work also provides recommendations for organizing literacy lessons using modern technologies.

Keywords: primary education, literacy, interactive methods, innovative techniques, student engagement

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasida amalgalashuvchilarning oshirilayotgan islohotlar, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, erkin mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi bu borada nihoyatda muhim bo'lib, bu davrda shakllanadigan bilim va ko'nikmalar bolalarning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatining poydevorini tashkil etadi. O'qish savodxonligi darslari esa bolaning nafaqat harf tanib, o'qish malakasini egallashi, balki o'z fikrini to'g'ri, ravon va mantiqan bayon qila olishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalarning ta'limga joriy etilishi, xususan, interfaol metodlardan foydalanish dars jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarning darsga bo'lgan

qiziqishini oshiradi va ular orasida hamkorlik, faollik, mustaqillik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Interfaol metodlar yordamida o‘qituvchi bilan o‘quvchi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi kuchayadi, bunda o‘quvchilar faol subyekt sifatida ta’lim jarayonida ishtirok etadilar. Mazkur mavzuda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qish savodxonligi darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishning innovatsion yondashuvlari, ularning turlari, afzalliklari va amaliy qo‘llanishi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, ilg‘or tajribalar va samarali metodik yondashuvlar asosida darslarni tashkil qilishning zamonaviy yo‘llari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang‘ich sinfda o‘qish savodxonligi darslari bolalarning keyingi ta’lim bosqichidagi muvaffaqiyati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun bu darslarda interfaol metodlardan foydalanish, o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish, ularning mustaqil fikrashi va og‘zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion usullarni tatbiq etish zarur. mazmunini yangilash, innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish tizimini joriy etish to‘g‘risida amaliy ishlar olib borilgan. O‘qish savodxonligini shakllantirish va uni interfaol metodlar orqali rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab pedagog olimlar izlanishlar olib borgan. Sh. Amonov ta’lim jarayonida o‘quvchi faolligini oshirishga xizmat qiladigan metodlarni o‘rganib, ularning samaradorligi haqida fikr bildirgan.G. Azizzo‘jaeva interfaol ta’lim texnologiyalari yordamida bilimlarni chuqurlashtirishning asoslarini ko‘rsatib bergan.N. Musurmonova esa boshlang‘ich ta’limda o‘qitish uslublarini takomillashtirish, darsni samarali tashkil etish va o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlagan.

Xorijiy olimlardan J. Dewey, L. Vygotsky va M. Montessorilarning ta’limga bo‘lgan konstruktiv yondashuvlari bugungi kunda interfaol metodlar asosida dars o‘tkazishda keng qo‘llanilmoqda.Bu olimlarning ishlari bugungi

kunda boshlang‘ich ta’lim tizimida dars samaradorligini oshirish va savodxonlik darajasini yuqorilantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

M. Usmonxo‘jayev – Boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha ishlari orqali darslarda o‘qituvchining roli, pedagogik mahorati va o‘quvchilarni kuzatish asosida samarali metodlarni qo‘llashga alohida e’tibor bergan.R. Jo‘rayev – Savodxonlik darslarini texnologiyalashtirish, ya’ni elektron resurslar, multimediya vositalari orqali darslar samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqan.Bu olimlarning ilmiy ishlari bugungi kunda o‘qituvchilarning amaliy faoliyatida qo‘llanilmoqda hamda yangi avlod darslik va metodik qo‘llanmalarini yaratishda asos bo‘lmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang‘ich sinfda o‘qish savodxonligini interfaol metodlar asosida o‘rgatish – zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mavjud ilmiy manbalar, tajribalar va normativ hujjatlar shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuv: o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi; mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish, savol berish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi; o‘quvchilarning bilimni faol egallashini ta’minlaydi; zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashadi.O‘zbekistonlik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur yondashuvning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishga xizmat qilgan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda metodlar xilma-xilligini ta’minalash va har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish zarurligi doimiy ravishda ta’kidlab kelinmoqda.

O‘qish savodxonligi darslarining interfaol va innovatsion yondashuvlar asosida o‘tilishi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.O‘quvchilarda mustaqil fikrlash, savol berish, tahlil qilish, mulohaza yuritish ko‘nikmalari rivojlanadi.Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, video materiallar, taqdimotlar, onlayn ilovalar orqali darslar boyitiladi.O‘qituvchilar uchun yangi metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqiladi va amaliyotda qo‘llaniladi.Savodxonlik darajasining ortishi o‘quvchining boshqa fanlarni

o‘zlashtirishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.O‘qish savodxonligi o‘quvchining tafakkuri, nutqi va fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi asosiy fanlardan biridir.Interfaol metodlar orqali o‘quvchilarda muloqot, bahs-munozara, fikr almashish, yakka va guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.O‘zbekiston olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bu borada mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.Prezident qarorlari, farmonlar va ta’lim dasturlari mazkur metodlarning ta’lim jarayoniga joriy etilishini qo‘llab-quvvatlaydi, boshlang‘ich ta’lim jarayonida innovatsion va interfaol metodlardan oqilona foydalanish orqali nafaqat savodxonlik darslarining samaradorligi oshadi, balki o‘quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojiga zamin yaratiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quv jarayonining innovatsion rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu metodlar orqali bolalarning faolligi, mustaqil fikrashi, matn bilan ishlash ko‘nikmalari, tanqidiy va ijodiy tafakkuri rivojlanadi. Dars jarayonida "Aqliy hujum", "Insert", "Sinkveyn", "Klaster", "Baliq skeleti", "Fikrlar jadvali" kabi metodlar o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularning ta’limga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan strategik rejasи.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Bruner, J. (1996). The Culture of Education. Harvard University Press.
4. Azizzxo‘jaeva G.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2005.

5. Musurmonova N. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2016.
6. Teshaboyeva T. Boshlang‘ich sinfda savod o‘rgatish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2019.
7. Usmonxo‘jayev M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida boshlang‘ich sinfda o‘qitish metodikasi. – Samarqand, 2020.
8. www.lex.uz – Normativ-huquqiy hujjatlar ma’lumotlar bazasi.
9. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim portali.